



UDK: 355,58.001

**Komal S. MAXMUDOV,**  
PhD, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
E-mail: [kamol.maxmudov2020@gmail.com](mailto:kamol.maxmudov2020@gmail.com), ORCID: 0009-0007-8309-2623

FVV Akademiyasi dotsenti, PhD N.O'razboev taqrizi asosida

### PARTICULAR FEATURES OF TEACHING THE RULES OF "FUNDAMENTALS OF LIFE SAFETY" IN THE FIELD OF SECURITY IN THE FORMATION OF THE WORLDVIEW OF YOUNG PEOPLE

Annotation

This article discusses the role and importance of the subject "Fundamentals of Life Safety" in the field of security in shaping the worldview of young people. Also, the pedagogical, psychological and social aspects of teaching this subject are analyzed, and effective methods for forming a culture of security in the educational process are shown. Particular attention is paid to the development of responsibility, awareness and the skills of making the right decisions in emergency situations among young people in the context of modern global threats.

**Key words:** Life safety, youth worldview, security culture, educational process, emergency, prevention, education, responsibility.

### ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРАВИЛ «ОСНОВЫ ЖИЗНЕОБЕСПЕЧЕНИЯ» В СФЕРЕ БЕЗОПАСНОСТИ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье рассматривается роль и значение предмета «Основы безопасности жизни» в сфере безопасности при формировании мировоззрения молодежи. Также анализируются педагогические, психологические и социальные аспекты преподавания этого предмета и показаны эффективные методы формирования культуры безопасности в образовательном процессе. Особое внимание уделяется развитию ответственности, осведомленности и навыков принятия правильных решений в чрезвычайных ситуациях у молодежи в контексте современных глобальных угроз.

**Ключевые слова:** Безопасность жизни, мировоззрение молодежи, культура безопасности, образовательный процесс, чрезвычайная ситуация, профилактика, образование, ответственность.

### YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA XAVFSIZLIK SOHASIDAGI "XAYOT XAVFSIZLIGI ASOSLARI" QOIDALARINING O'RGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda xavfsizlik sohasidagi "Hayot xavfsizligi asoslari" fanining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ushbu fanni o'qitishning pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilinib, ta'lim jarayonida xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning samarali usullari ko'rsatib berilgan. Zamonaviy global tahdidlar sharoitida yoshlarda mas'uliyat, ongillik va favqulodda holatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Hayot xavfsizligi, yoshlar dunyoqarashi, xavfsizlik madaniyati, ta'lim jarayoni, favqulodda holat, profilaktika, tarbiya, mas'uliyat.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, insonlarning jamiyatda erkin xarakatlanishi, huquq va erkinligini ta'minlanishi, yashash darajasining ko'tarilishi va boshqa ko'rsatgichlar xavfsizlik masalalari bilan chambarchas bog'liqdir. "Hozirgi davrda ishlab chiqarish xavflardan, tabiiy ofatlardan, falokat va halokatlardan insonlarning xayot faoliyatini saqlash eng dolzarb muammolardan hisoblanadi"[1]. Jamiyatda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faol harakatlari yig'indisi, ma'lum maqsad sari intilishining majmui faoliyat tushunchasini bildiradi. Aynan mana shu faoliyat insonlarni boshqa tirik jonzodlardan farqlantiradi. Inson faolligi bu shaxsning jamiyat hayotidagi ishtirok darajasi, tashabbuskorligi va o'z maqsadlariga erishish yo'lidagi harakatchanligini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. U ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida namoyon bo'ladi.

Bizga ma'lumki jamiyat va inson xayotnida yuz beruvchi baxtsiz hodisalar, jamiyat mol-mulki, o'rmon yong'inlar, turli sohalaridagi avariya va talofatlardan insonlar va jamiyat a'zolari katta miqdorda zarar ko'radi. Tabiiy ofatlar, texnogen halokatlar, ijtimoiy tahdidlar va axborot xavfsizligi muammolari inson hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Globalashuv sharoitida kiberxavfsizlik, ekologik muammolar va texnogen tahdidlar ortib bormoqda. Shu bois ta'lim jarayonida xavfsizlik masalalarini innovatsion usullarda o'qitish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va amaliy mashqlarni ko'paytirish zarur.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 3-moddasida "ta'lim — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon"[2] deb ta'kidlagan. Bundan ko'rinib turibdiki, yoshlarimizni ilmiy-nazariy, falsafiy dunyoqarashini shakllantirishda ta'limni o'rni beqisdir.

"Yoshlarga ta'lim berish masalasi mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Hayot xavfsizligi insoniyat hayotini, tabiiy boyliklarni, atrof muhitni muhofaza qilish muammosi mamlakatimizda alohida e'tiborga loyiq va dolzarb muammo hisoblanadi"[3].

Ayniqsa, hayot xavfsizligini ta'minlash, inson hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan oqilona

foydalanish hamda atrof-muhitni asrash masalalari bugungi kunda alohida e'tibor talab etuvchi dolzarb vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, yoshlarda hayot xavfsizligiga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. "O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentabr qabul qilingan № 406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi" qonunining 4-moddasi "Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: ochiqlik va shaffoflik, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi, yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarining ustuvorligi, yoshlarning kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligi"[4].

Bugungi kunda inson hayoti va faoliyati turli tabiiy, texnogen, ijtimoiy hamda axborot tahdidlari ta'sirida kechmoqda. Shu bois ta'lim tizimida "Hayot xavfsizligi asoslari" fanini o'qitish orqali yoshlarda xavfsiz turmush tarzi madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur fanning predmeti, maqsadi va vazifalarini chuqur anglash yoshlar dunyoqarashining ongli va tizimli ravishda shakllanishiga xizmat qiladi.

Yoshlarimizni dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida xayot faoliyati xavfsizligi sohasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishga ko'plab qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.10.2025-yildagi PQ-311-son "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasini raqamlashtirish hamda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"[5]gi qarori, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.10.2025-yildagi PQ-310-son "Favqulodda vaziyatlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"[5]gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.10.2025-yildagi PF-185-son "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"[6]gi farmoni, hamda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.12.2025-yildagi 819-son "Mehnatni muhofaza qilish sohasiga oid ayrim nizomlarni tasdiqlash to'g'risida"[7]gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.07.2025-yildagi 454-son "Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini joriy etish to'g'risida"[8]gi, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 3 apreldagi PQ-123-sonli "Favqulotda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"[9]gi qarori hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlar fuqarolarning xavfsizlik sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish zarurati belgilab beradi. Ushbu qonun, qaror va formonlar jamiyat va davlatimizda inson xayoti va xavfsizligi sohasida tub isloxoatlarni yanada rivojlanishiga, yoshlarni xayot xavfsizligiga oid dunyoqarashini yuksaltirishga erishiladi.

"Xavfsizlik" tushunchasi keng va ko'p qirrali mazmunga ega bo'lib, u inson, jamiyat va davlatning turli xavf-xatarlardan himoyalanganlik holatini anglatadi. Jamoat xavfsizligi jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish. Ekologik xavfsizlik atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish. Texnogen xavfsizlik ishlab chiqarish va texnika bilan bog'liq xavflarni kamaytirish, avariya va halokatlarning oldini olish. Axborot xavfsizligi ma'lumotlarni himoya qilish, kiberxavflardan saqlanish. Xavfsizlikning ahamiyati inson hayotini saqlab qoladi, jamiyat barqarorligini ta'minlaydi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi, kelajak avlod uchun sog'lom muhit yaratadi. "Xavfsizlik-ustuvor darajada siyosat, geosiyosat makoniga nisbatan qo'llanadigan tom ma'noda ma'naviyat, insonlararo hamjihatlik, o'zaro

muruvvatning ifodasi bo'lgan tushuncha"[10]. Xavfsizlik avvalo shaxs, jamiyat va davlatning tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati deb xam qarash mumkin. Xavfsizlik jamiyat va davlatda quyidagi darajalarda namoyon bo'ladi. Shaxsiy xavfsizlik, ya'ni inson hayoti va huquqlari himoyasi yo'nalishida, ijtimoiy xavfsizlik jamiyat barqarorligi yo'nalishida, milliy xavfsizlik davlat mustaqilligi va hududiy yaxlitligi yo'nalishida, global xavfsizlik xalqaro barqarorlik va tinchlik yo'nalishlarida namoyon bo'ladi.

Siyosatda xavfsizlik ustuvor vazifa hisoblanadi, chunki davlat o'z hududi, manfaatlari va aholisini himoya qilishi lozim. Geosiyosatda esa u davlatlar o'rtasidagi kuchlar muvozanati, hamkorlik va raqobat bilan bog'liq. Xavfsizlik faqat kuch yoki nazorat emas. YA'ni, haqiqiy xavfsizlik faqat kuch bilan emas, balki insonlar o'rtasidagi ishonch va hamjihatlik bilan ta'minlanadi.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiyning "Davlatni aql-idrok bilan boshqarish xalq boshiga tushgun xavf-xatarni kamaytirish va bartaraf etishdan iboratdir"[11], degan fikrlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Yuusf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarida ta'kidlanganidek, "Beklik muqaddaslik va poklikni talab etadi. Hushyorlik, sergaklik u qo'ygan talablar qatorining boshida turadi. Bek sog', hushyor, sergak bo'lishi lozim. Ular g'ofil bo'lsa, balo yondashadi. Qaysi bek hushyor bo'lsa, elini mustahkamlaydi, yov bo'ynini yanchib, uning ustiga balolar yog'diradi. Yov bo'ynini yanchib tashlashni istagan kishi tunda ham, kunduzi ham qulog'ini sog'-hushyor tutishi lozim. Hushyorlik tufayligina yovni yengish mumkin, g'ofullik bekklik bog'ini buzadi"[12]. Ushbu fikrlar mazmun-mohiyatini chuqur anglashga harakat qiladigan bo'lsak, fikr-mulohazalarning ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatiga qarab, asosan inson, ayniqsa beklar qanday fazilatlariga ega bo'lishi kerakligini tushunish mumkin. Beklik - katta mas'uliyat bo'lib, u poklik, halollik va ma'naviy soflikni, hushyorlik, doimo atrofidagi vaziyatdan boxabar bo'lishi shartini talab etadi. Agar g'ofillik va befarqlikka qarshi o'zida immunitet shakllanmasa hamda beklar jamiyat va davlatdagi ishlardan xabardor bo'lmasa, jamiyatni halokat boshlaydi. Hamda beklar e'tiborsiz bo'lsa, jamiyat zaiflashadi. Yoshlarni hushyor, mas'uliyatli, ma'naviy pok va vatanparvar qilib tarbiyalashdir. Bunday qarashlar yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularni hayotda to'g'ri yo'l tanlashga va jamiyatda faol, foydali shaxs bo'lib yetishishga yordam beradi.

Xavfsizlik - bu faqat xavfning yo'qligi emas, balki insonning o'zini ma'lum bir ijtimoiy makonda har tomonlama himoyalangan va barqaror shart-sharoitda yashashini ta'minlovchi muhim ijtimoiy-siyosiy omildir. Shuning uchun har bir insonda xavfsizlikka oid bilim, ko'nikma, madaniyat va ijtimoiy-siyosiy tafakkur shakli shakllangan bo'lishi zarur.

Xayot faoliyati xavfsizligi fanini vujudga kelishiga va rivojlanishiga ishlab chiqarishning rivojlanishi jarayonidan inson faoliyati uchun xavfli bo'lgan omillar va sharoitlar aniqlanib, ularni oldini olish zaruriyati sabab bo'ldi.

"Ulug' bobokalonlarimiz Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Zaxriddin Muxammad Bobur, zamondoshlarimizdan N.D.Zolotnitskiy, N.V.Solovev, D.A.Kelbert, V.L.Gantello, M.I.Grimtlin, M.N.Nabiev, P.V.Uchastkin, T.I.Iskandarov, O'.Yuldoshov, O.Qudratov, T.G'aniev va boshqalarining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan va qo'shib kelmoqda"[13].

Ushbu fan quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi. Tabiiy ofatlar (zilzila, sel, suv toshqini), texnogen xavflar (yong'in, portlash, ishlab chiqarish avariylari), ijtimoiy xavflar (jinoyatchilik, terrorizm), ekologik xavfsizlik, sog'lom turmush tarzi va birinchi tibbiy yordam asoslari. Shu jihatdan fan inson, jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi xavfsizlik munosabatlarini

o'rganadi. Fanning asosiy maqsadi — yoshlarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, ularni hayotiy faoliyat jarayonida xavf-xatarlarni oldindan anglash va bartaraf etishga tayyorlashdir. Maqsad quyidagilarni o'z ichiga oladi.

“Hayot xavfsizligi asoslari” fanining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat. Xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni o'rgatish. Xavfli vaziyatlarda o'zini to'g'ri tutish ko'nikmalarini shakllantirish. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni o'rgatish. Atrof-muhitni muhofaza qilishga ongli munosabatni rivojlantirish, fuqarolik muhofazasi qoidalarini tushuntirish. Bu vazifalar yoshlarning amaliy tayyorgarligini oshirish bilan birga, ularning ijtimoiy faolligini ham kuchaytiradi.

“Mamlakatimizda amalaga oshirilayotgan keng ko'lamlai isohoitlar jarayonini, ya'ni kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadlarimiz aholining asosiy qismini tashkil etuvchi yoshlar ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yoshlarga ta'lim berish masalasi mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Xayot xavfsizligi insoniyat hayotini, tabiiy boyliklarni, atrof muhitni muhofaza qilish muammosi mamlakatimizda alohida e'tiborga loyiq va dolzarb muammo hisoblanadi”[14].

Yoshlarimizni dunyoqarashini shakllantirishda hayot xavfsizligi asoslarining tarbiyaviy ahamiyati juda beqiyos bo'lib, “Hayot xavfsizligi asoslari” fani yoshlarda xavfsizlik ong va madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. “Hayot xavfsizligi asoslari” fani yoshlarga nafaqat nazariy bilimlar berish, balki yoshlarning qalbi va tafakkurida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Mazkur fan orqali fuqarolik jamiyatining faol, shijodli yoshlarida xavfni anglash, tahlil qilish va uning oldini olish bo'yicha bilim, ko'nikmalari rivojlanadi. Yoshlar dunyoqarashining shakllanishida xavfsizlikka oid nazariy va amaliy bilimlar muhim o'rin tutadi. Chunki xavfsizlik madaniyati shaxsning ijtimoiy faolligi, mas'uliyati va ongli madaniy xulq-atvorini belgilaydi. Hozirgi globallashuv sharoitida yoshlar dunyoqarashini shakllantirish kompleks va tizimli yondashuvni

talab etadi. Ayniqsa, “Hayot xavfsizligi asoslari” fanini o'qitishda integrativ yondashuv yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki xavfsizlik masalalari tabiat, jamiyat va inson hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, turli fanlar kesishmasida namoyon bo'ladi.

Yoshlar dunyoqarashi faqatgina bilim bilan emas, balki qadriyatlar, ijtimoiy muhit va shaxsiy tajriba asosida shakllanadi. “Hayot xavfsizligi asoslari” fani orqali, yoshlarda sog'lom turmush tarziga rioya qilishga oid nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalar shakllanadi. Yoshlar dunyoqarashida o'zi yashayotgan tabiat va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabat bo'lish, favqulodda holatlarda to'g'ri harakat qilish, ongi va tafakkurida huquqiy ong va fuqarolik mas'uliyatini anglash kabi sifatlar va ko'nikmalar rivojlanadi. “Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko'lamlai ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil qilindi. Hududlarda «Loyihalar fabrikasi» ish boshladi. Yosh avlodning sog'lom o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan «besh muhim tashabbus»ni joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda”[15].

Xulosa qilib aytganda, “Hayot xavfsizligi asoslari” fanining predmeti, maqsadi va vazifalarini yoshlar tomonidan anglanishi ular dunyoqarashining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Ushbu fan yoshlarni xavfsiz, mas'uliyatli va ongli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Natijada jamiyatda xavfsizlik madaniyati yuksaladi va barqaror taraqqiyot uchun mustahkam asos yaratiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrda qabul qilingan №406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi” qonunining 4-moddasi.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni №-637-sonli, 2020 yil 23 sentyabr, <https://lex.uz/uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20 oktyabrdagi PQ-311-son “Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasini raqamlashtirish hamda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20 oktyabrdagi PQ-310-son “Favqulodda vaziyatlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25 oktyabrdagi PF-185-son “Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida”gi farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24 dekabrda 819-son “Mehnatni muhofaza qilish sohasiga oid ayrim nizomlarni tasdiqlash to'g'risida”gi qarori.
7. “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 3 aprelda 123-sonli “Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvar, 23-sonli “O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” gi qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21 ilyudagi 454-son “Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini joriy etish to'g'risida”gi qarori
10. N.X.Razzoqov, Sh.A.Mamasov “Xayot faoliyati xavfsizligi” o'quv qo'llanma. Toshkent-2019 yil. 11-bet.
11. Qiyom Nazarov “Jahon falsafasi qomusi” “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, “Ma'naviyat” nashriyoti-T., 2023 y.
12. A.N.Farobiy “Fozil odamlar Shahri” –T., 1993 y.
13. Xavfsizlik sohasida “Hayot xavfsizligi asoslari” qoidalarini o'qitishning samaradorligi.
14. Yuusuf Xos Xojib. “Qutadg'u bilig” // “Fan” nashriyoti.-T., 1971 y.
15. N.X.Razzoqov, Sh.A.Mamasov “Xayot faoliyati xavfsizligi” o'quv qo'llanma. Toshkent-2019 yil. 11-bet.
16. LEX.UZ - O'zbekiston qonunchiligi..file:///C:/Users/Admin/Downloads/havfsizlik-so-asida-ayot-havfsizligi - asoslari-oidalarini-itishning-samaradorligi.pdf